



Xalq so'zi

O'zbekiston —
kelajagi
buyuk
davlat

2025-YIL — ATROF-MUHITNI ASRASH VA "YASHIL" IQTISODIYOT YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: info@xs.uz

2025-yil 27-may, № 106 (9001)

Seshanba

Saytimizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



O'ZBEKISTON PREZIDENTI JAHON TRIATLON ITTIFOQI BILAN HAMKORLIKNI KENGAYTIRISH REJALARINI OLQISHLADI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Samarqand shahridagi triatlon va paratriatlon bo'yicha jahon kubogi doirasida mamlakatimizda bo'lib turgan Butunjahon triatlon ittifoqi rahbari Antonio Fernandes Arimanini qabul qildi.



Ushbu nufuzli global tashkilot bilan mazkur sport turini ommalashtirish va O'zbekistonda milliy triatlon maktabini qo'llab-quvvatlash borasidagi amaliy hamkorlikni yanada kengaytirish masalalari ko'rib chiqildi.

Mamlakatimizda triatlon jadal rivojlanib borayotgani mamnuniyat bilan qayd etildi. Milliy federatsiya faoliyat ko'rsatmoqda, mutazam ravishda xalqaro musobaqalar o'tkazilmoqda, o'zbekistonlik sportchilar qit'a va jahon reytinglarida o'z o'rinlarini mustahkamlab bormoqda.

Sportchilar, murabbiylar, hakamlar va sport menejerlarini tayyorlash, zamonaviy infratuzilmani yaratish sohasida hamkorlikni yanada rivojlantirish va ekspert ko'magi dasturlarini amalga oshirishga alohida e'tibor qaratiladi.

O'Z.A.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmati surati.

TO'QIMACHILIK, QURILISH MATERIALLARI VA MEBELSOZLIK SOHASIDA YANGI IMKONIYATLAR YARATILADI

Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida 26-may kuni mahalliy sanoatni rivojlantirishga qaratilgan ustuvor vazifalar yuzasidan videoselektor yig'ilishi o'tkazildi.

Bugun dunyodagi tebranishlar sharoitida har bir davlat, avvalo, eng ko'p ish o'rinlari yaratadigan sohalarni himoyalash choralarini ko'ryapti. Mamlakatimizda to'qimachilik, qurilish materiallari, mebelsozlik ana shunday sohalardir — ularda 1 millionga yaqin aholi ishlayotgan.

O'tgan 4 oyda yurtimizda sanoat 6,3 foiz o'sib, 290 trillion so'mga yetgan. Eksport 20 foiz oshib, 6 milliard 350 million dollarni tashkil etgan.

Yig'ilishda mahalliy sanoatni qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish masalalari muhokama qilindi. Bu boradagi holat tuman va tarmoqlar kesimida tahlil qilinib, kamchiliklar ko'rsatib o'tildi.

Masalan, to'qimachilikda 7 mingga yaqin tadbirkorlar 500 dan ziyod turdagi mahsulotlar chiqaryapti. Ayrımlari nufuzli brendlarga kiyim-kechak yetkazib beryapti.

Lekin ko'pchilik sifatga ishlayotgani bilan buni ko'rsatib bera olmayapti. Hozirgacha faqat 244 ta korxonamizda xalqaro sertifikat bor xolos. Ularning ham katta qismi Toshkent va vodiylarida bo'lib, boshqa hududlarda barqaror bilan sanarli.

O'zbekiston Prezidentining Farmoniga ko'ra nafaqat xalqaro sertifikat olish, balki korxonani bunga moslashtirish xarajati ham qoplab berilishi belgilangan. Bundan foydalanib, imkoniyatlarni tadbirkorlarga yetkazib, har bir viloyatda xalqaro sertifikatga ega korxonalarini ko'paytirish vazifasi qo'yildi.

Davlatimiz rahbari bu borada muhim tashabbusni ilgari surdi. O'zbekistonda Milliy brendlarni qo'llab-quvvatlash kompaniyasi tashkil qilinadi. Unga xorijdan brend-menejer, dizayner, marketologlar jalb etilib, milliy brendlarni jahon bozoriga olib chiqishga ko'maklashiladi. Xalqaro sertifikat bor, raqobatbardosh mahsulotlarga sifat belgisi berilib, dunyoda keng targ'ib etiladi.

Yurtimizda milliy mahsulotlar bir joyda sotiladigan savdo markazlari yo'q. Shu bois endi hududlarda "Mall of Uzbekistan" majmualari barpo etiladi. Ulardagi savdo do'konlari tadbirkorlarga minimal narxda ijaraga beriladi. Bunday markazlar xaridorlarga keng tanlov imkonini berib, xorijiy turistlarga ham qulay bo'ladi.

Hozirgi murakkab sharoitda o'zimizda bor xomashyoni chuqur qayta ishlab, qo'shilgan qiymatni ko'paytirish — eng asosiy masala. Shu maqsadda tayyor mahsulot ishlab chiqaruvchilar uchun faktoring tizimi joriy qilindi, bunga 100 million dollar ajratildi.

Shuning davomi sifatida, endi to'qimachilik korxonalarini kalava ipni faktoring asosida soddalashgan tartibda sotib olishi mumkin bo'ladi. Mahalliy sanoatdagi yana bir salohiyatli yo'nalish — mebelsozlik. Bu tarmoqda 7 ming 500 ta korxonalar ishlab turibdi. O'tgan yilning o'zida 920 ta yangi korxonalar ochildi. Sohadagi 6 trillion 700 milliard so'mlik mahsulot tayyorlanib, 20 million dollarlik mebel eksport qilindi.

Tadbirkorlarimiz bundan ko'piga ham qodir. Shu maqsadda uydagi hunarmandlikdan sanoatlashgan bosqichga o'tish istagida yurganlar ancha.

Shu bois endi 5 nafargacha ishchi olganlarga yakka tadbirkor sifatida mebel ishlab chiqarishga ruxsat beriladi. Ushbu faoliyatni boshlash, kengayish istagida yurgan yosh tadbirkorlarga 7 yilga 5 milliard so'mgacha 18 foizli kredit ajratiladi.

Mebelchilikka ixtisoslashtirilgan Sharof Rashidov, Yangi Namangan, Pastdarg'om, O'rta Chirchiq, Quva, Buvayda, Yunusobod va Uchtepeler tumanlarida Xonqa tajribasi asosida mebelchilik markazlari tashkil etildi.

Sohadagi kichik biznes vakillari chet eldan materiallar olib kelishda qiyinlashi mumkin. Ularga bu borada ko'maklashish, transport xarajatlari

yengillatib, xomashyoni arzon yetkazib berish maqsadida yog'och va yog'och materiallarini markazlashgan holda olib kelish tashkil etiladi. Bunda monopoliyaga yo'l qo'yilmaydi, aksincha, bozorda tanlov imkoniyati oshadi. Tadbirkorlar narxi va ehtiyojiga qarab ushbu arzonlashtirilgan yog'ochdan yoki boshqa ta'minotchidan sotib olishi yoki chet eldan o'zi keltirishi mumkin bo'ladi.

Shuningdek, 14 turdagi xomashyo, furnitura, aksessuar uchun 3 yil muddatga import boji 1 foiz etib belgilanadi.

Eksport faoliyatini rag'batlantirish maqsadida mebelchilarga xalqaro sertifikat olish xarajatining hamda xorijdan jalb qilgan dizayner, marketolog, muhandis-texnologlar ish haqining yarmi qoplab beriladi. Xalqaro ko'rgazmalarda ijara puli kompensatsiya qilinadigan maydon hozirgi 20 kvadratdan 40 kvadrat metrga oshiriladi.

Yurtimizda azaldan qadrlangan zargarlik bugun iqtisodiyotda qo'shimcha drayver bo'lishi mumkin. O'tgan yili bu tarmoqda ishlab chiqarish 200 million dollardan oshgan, eksport 17 foiz o'sib, 92 million dollarga yetgan.

Lekin bu yilga 100 tonnadan ziyod oltin qazib olinadigan O'zbekistondagi imkoniyatlarning o'ndan biri ham emas. Shu bois bu sohada ham qo'shimcha yengilliklar belgilanadi.

Endi zargarlar ham yakka tadbirkor sifatida tilla buyumlari savdosi bilan shug'ullanishi mumkin bo'ladi. Chet eldan mutaxassis olib kelish xarajatining 2,5 ming dollargacha qismi kamida 5 nafar shogird chiqarish sharti bilan qoplab beriladi.

Bu sohada ham sanoat usuliga o'tish va milliy brendlarni qo'llab-quvvatlash choralarini ko'riladi. Xususan, zargarlikda ishlatiladigan uskunalar va ularning butlovchi qismlari import bojidan ozod qilinadi. Navoiy va Olmaliq kon-metallurgiya kombinatlaridan oltinni bo'lib to'lash asosida sotib olish tartibi yana 3 yilga uzaytiriladi. Nufuzli brendlarni hamkorlikni yo'lga qo'yib, ularning dizayni va qolipini olib kelish xarajatining 30 ming dollargacha qismi qoplab beriladi.

Turkiya, Dubay va Misr tajribasi asosida Toshkent, Andijon va Xivada zargarlik markazlari ochildi. Endi bunday majmualar boshqa hududlarimizda ham bosqichma-bosqich tashkil etiladi.

Zargarlarni xomashyo bilan barqaror ta'minlash uchun bu yil birjaga chiqariladigan oltin hajmi 6 tonnadan 8 tonnaga oshiriladi. Barcha hududlarda oltin zaxirasi yaratiladi.

Bunga javoban tarmoqda "yashirin iqtisodiyot" ulushini qisqartirish, qonuniy faoliyatga rag'bat choralarini qo'llab-quvvatlash ko'rsatmalar berildi.

Bunyodkorlik ko'lami keng bo'lgan yurtimizda qurilish materiallariga talab yuqori. Hozirgi kunda bu tarmoqda 10 mingga yaqin korxonalar faoliyat yuritmoqda. Endigi muhim vazifa sifat va xaridorlikni ta'minlash.

Shu bois bunyodkorlik ishlarida mahalliy materiallardan kengroq foydalanish, developerlarga aylanma mablag' uchun kredit ajratish orqali buni qo'llab-quvvatlash zarurligi qayd etildi.

"Shaffof qurilish" platformasida qurilish materiallari korxonalarini reestrini tashkil qilib, u orqali sifat reytingini yuritish vazifasi qo'yildi.

Mahsulotlar tannaxirini tushirishda energiya iqtisodiy juda dolzarb. Shuning uchun energiya va resurs sarfi yuqori yo'nalishlarni tahlil qilib, tejamkor innovatsion yechimlarni qo'llash muhimligi qayd etildi.

Yig'ilishda muhokama qilingan masalalar yuzasidan mutasaddilar va tadbirkorlarning takliflari eshitildi.

O'Z.A.

Anjuman

BAXTLI BOLALIKNI TA'MINLASHGA QARATILGAN XALQARO SHERIKLIK

Kecha poytaxtimizda "Majburiyatdan harakatga: bolalarga nisbatan zo'rvonlikka barham berish bo'yicha strategiya va milliy istiqbollar" mavzuida konferensiya bo'lib o'tdi.

Tadbir O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligi tomonidan Oliy Majlis Senati va BMTning Bolalar jam'armasi (YUNISEF) bilan hamkorlikda tashkil etildi.

Unda davlat idoralari rahbarlari, sud-huquq tizimi, ta'lim va sog'liqni saqlash sohasi vakillari, fuqarolik jamiyati institutlari xodimlari, yoshlar, shuningdek, Markaziy Osiyo mamlakatlaridagi xorijiy davlatlar elchilari ishtirok etdi.

Konferensiya doirasida O'zbekiston bolalarga nisbatan zo'rvonlikning barcha shakllari barham berishga qaratilgan xalqaro "Bogota harakatlarni chaqirg'i" tashabbusiga sodiqligini rasman tasdiqladi. Ushbu qadam so'nggi ikki yil davomida mamlakatimizda bolalarni himoya qilish yo'nalishida amalga oshirilgan keng qamrovli huquqiy va institutsional islohotlarning mantiqiy davomidir. Jumladan, joriy yil 15-maydan kuchga kirgan "Bolalarni zo'rvonlikning barcha shakllaridan himoya qilish to'g'risida"gi Qonun bu boradagi asosiy normativ-huquqiy hujjatlardan biri hisoblanadi.

Anjumanda Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Norboyeva bolalarni zo'rvonlikdan himoya qilish, huquq va manfaatlarini ta'minlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri ekanini ta'kidladi. "Bolalarga nisbatan zo'rvonlikka barham berish jamiyatning boshqa qatlamlariga bo'lgan boshqa zo'rvonlikni ham bartaraf etishga hamda pirovard natijada inson huquqlari va erkinliklari, qonuniy manfaatlari so'zsiz ta'minlanishiga olib kelayotganining hamma guvohi bo'lmoqda", dedi u.



Mulohaza

XALQ YETAKCHISI

YOXUD VAQT SINOVIDAN O'TAYOTGAN ISLOHOT FALSAFASI

Sukut qilmaslik mas'uliyati

Ko'z oldimizda tarixni yaratayotgan shaxs bor. Ammo biz ko'pincha bu ulug'likni ko'ramiz, an'angiy olmaymiz, chin dildan his etmaymiz. Vaholanki, har bir inson uchun o'zi yashayotgan zamonda xalqning muammolarini hal etish, farovonligini ta'minlash uchun kechayu kunduz mehnat qilayotgan yetakchining intilishlari teran anglash nafaqat siyosiy burch, balki insoniylik talabi, qalb amridir.

Qaror qabul qilish oson emas. Ayniqsa, har kuni xalq taqdiriga daxldor yuzlab qarorlarni qabul qilish uchun kishidan katta jasorat, haqiqiy rahnamolik salohiyati talab etiladi. Chunki har bir qaror ortida inson taqdiri, bir oila shodonligi, bir yurakning umidi, ishonchi yashiringan.

Yetakchi bugun yaqinimizda. U kishi suratda emas, xalq qalbining ichidadir. Unga qarab turgan ko'zlardan ko'ra uni his etayotgan yuraklar soni muhimroqdir. Chunki u inson faqat siyosiy shaxs emas, balki millat uchun yetishgan tarixiy zarurat, xalq orzusining amaliy ifodasi hamdir.

Ba'zi shaxslar bor, ular faqat siyosatda emas, millat tafakkurida yashaydi. Ularning hayotidagi har bir odim, har bir tashabbus tarix uchun kichkina, ammo xalq uchun ulkan ma'no kasb etadi.

U kishi "men yetakchiman" deb emas, balki "men xalq bilanman" deya yashaydi. Shu bois ham uni tan olish emas, uni his etish kerak. Chunki xalqning yuragi guvohlik beradiki: u elning eng og'ir yukini yelkasiga olgan, xalqning eng uzoq umidini qalbiga joylagan insondir.

Lekin nega shunday yetakchi haqida ko'proq gapirilyotgani yo'q? Shoirilar, yozuvchilar, ziyolilar, amaldorlar — ular xalq so'zining, yurt dardining ovozi bo'lishi kerak edi. Afsuski, aksariyati sukutda.

Bu sukut nimaning sukuti? Qo'rqummi? Yo'qsa loqaydlikmi? Yoki

o'z ortidan kelayotgan mas'uliyatni his qilmaslikmi?

Ulug'likni his qilsa-da, so'z ayt olmayotgan ziyoli — xalq qalbining ko'zguisi emas, uning yopiq darvozasi. Chunki sukut — hakam emas. Sukut — ko'p holatlarda haqiqatdan qochish hamdir.

Sohibqiron Temurning bir gapi bor: "Qalam ahli xalq uchun yozmasa, xalq o'zini anglay olmaydi. Sukutini kuzatgan yetakchi esa tarixda qolmaydi".

Bu gap ko'pchilik o'ylaganidek, yetakchiga qaratilgan tanqid emas. Aksincha, u xalqning qalbidan yonib turgan nuriga so'z bilan guvohlik berolmagan ziyolilarga nisbatan aytilgan ogohlidir. Chunki tarixda qancha buyuk yetakchilar o'tgan bo'lsa-da, ularning faoliyatini yoritmagan, fidokorligini yozmagan, insonparvar g'oyalarni yoyimgan qalam ahli sabab, bu buyuk shaxslar tarix sahifalarida mutlaq izsiz yo'qolgan.



O'zbekiston — Yaponiya: IKKI TOMONLAMA ALDQALAR YANADA RIVOJLANADI

19 — 24-may kunlari Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Spikeri N. Ismoilov boshchiligidagi delegatsiya Yaponiyada rasmiy tashrif bilan bo'ladi.

Parlament diplomatiyasi

Tashrif davomida bir qator ikki tomonlama, jumladan, Yaponiya parlamenti Vakillar palatasi Spikeri Fukushiro Nukaga, Yaponiya parlamenti Maslahatchilar palatasi Raisi Masakazu Sekiguchi va boshqa rasmiylar bilan uchrashuvlar o'tkazildi.

Ularda O'zbekiston — Yaponiya munosabatlarining hozirgi holati va uni rivojlantirish istiqbollari, xususan, parlamentlararo hamkorlikni kengaytirish, yangi mazmun bilan boyitish, qonun ijodkorligi sohasida o'zaro tajriba almashishni faollashtirish masalalari muhokama qilindi.

So'nggi yillarda davlat rahbarlarining



sa'y-harakatlari bilan ikki tomonlama hamkorlik sifat jihatdan yuqori bosqichga ko'tarilgani, oliy darajadagi kelishuvlar samarali amalga oshirilayotgani, parlamentlar, hukumatlar va idoralar o'rtasida sermahsul aloqalar yo'lga qo'yilgani alohida qayd etildi.



Siyosiy partiyalar fraksiyalarida

INSON MANFAATLARI VA IJTIMOY HIMOYASI KAFOLATI

Siyosiy partiyalarning Oliy Majlis Qonunchilik palatasidagi fraksiyalarining yig'ilishlari bo'lib o'tdi. Ularda quyidagi palataning navbatdagi majlisi kun tartibiga kiritilishi rejalashtirilayotgan qator qonun loyihalari atroflicha ko'rib chiqildi.

Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati — O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi fraksiyasi yig'ilishida "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga muvofiqlikni baholash organlarining mas'uliyatini yanada oshirish hamda mahsulotlarni o'z ixtiyori bilan chaqirib olgan tadbirkorlarga yengillik berishga qaratilgan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonun loyihasi muhokama markazida bo'ladi.

Keyingi yillarda muvofiqlikni baholash jarayonlariga zamonaviy usullarni joriy etish bo'yicha keng ko'lami ishlar amalga oshirilmoqda. Mazkur sohada iste'molchilarning hayoti va sog'ligini

muhofaza qilishga qaratilgan talablar kuchaytirildi. Shu bilan birga, muvofiqlikni baholovchi organlar tomonidan sohada qoidabuzarliklarning ortib borayotgani muvofiqlikni baholash qoidalarini buzganini uchun ta'sir choralarini kuchaytirish zaruratini ko'rsatmoqda.

Ushbu qonun loyihasi bilan Fuqarolik kodeksi hamda "Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi, "Standartlashtirish to'g'risida"gi, "Texnik jihatdan tartibga solish to'g'risida"gi qonunlarga tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilmoqda.

Fraksiya a'zolari qonun loyihasining mazmun-mohiyati va ahamiyati

haqida alohida to'xtalib, unda nazarda tutilayotgan ayrim normalar bo'yicha qonun tashabbuskorlariga aniqlashtiruvchi savollar berishdi. Munozaralar va uzoq davom etgan savol-javoblardan so'ng qonun loyihasi deputatlar tomonidan qo'llab-quvvatlandi.

Yig'ilishda "Davlat mulkini xususiyashtirish sohasi takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonun loyihasining muhokamasi ham qizg'in kechdi.

U bilan 13 ta qonun hamda Yer, Soliq kodekslariga davlat aktivlarini xususiyashtirish va ijaraga berishni soddalashtirish, sohada tadbirkorlarga qulay sharoitlar yaratishga qaratilgan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilmoqda.

Yig'ilishda kun tartibiga kiritilgan boshqa masalalar ham ko'rib chiqildi.



Uchrashuv

KUN TARTIBIDA – SIFATLI TA'LIMNI MUSTAHKAMLASH MASALASI

Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Norboyeva Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bolalar jam'armasi (YUNISEF) ijrochi direktori Ketrin Rassel bilan uchrashdi.

Suhbat chog'ida O'zbekiston va YUNISEF o'rtasida bola huquqlarini himoya qilish, ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirish, ona va bola salomatligini saqlash, inklyuziv va sifatli ta'limni joriy etishga qaratilgan hamkorlikni rivojlantirish va mustahkamlash masalalari atroficha muhokama qilindi.

Tomonlar bolalar huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan xalqaro forumlar va tadbirlarni tashkil etish va o'tkazish bo'yicha birgalikda amalga oshiriladigan ishlarni faollashtirishdan o'zaro manfaatdor ekanligini tasdiqladi. Uchrashuv yakunida amaliy loyihalarni yuzaga chiqarish orqali O'zbekiston va YUNISEF o'rtasida konstruktiv va samarali hamkorlikni mustahkamlashga kelishib olindi.

BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARIGA ERISHISH – E'TIBOR MARKAZIDA

Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Norboyeva BMT Bosh kotibi o'rinbosari, BMT Taraqqiyot dasturi administratori o'rinbosari Xaolyan Syuy bilan uchrashuv o'tkazdi.

Suhbat davomida O'zbekiston va BMT Taraqqiyot dasturi o'rtasidagi amaldagi hamkorlikka yuqori baho berildi. Bugungi kunda mamlakatimizda umumiy qiymati 163 mln. AQSH dollaridan ziyod 43 ta loyiha amalga oshirilayotgani ta'kidlandi. Bu esa mintaqaviy mamlakatlari orasida eng katta ko'rsatkichlardan biridir.

tizimni modernizatsiya qilish, davlat xizmatlari sifatini yaxshilash kabi muhim yo'nalishlarni qamrab olgan. Yig'ilishda tomonlarning 2021 – 2025-yillarga mo'ljallangan mamlakat dasturi doirasida sheriklikni yanada chuqurlashtirishga sodiqligi ta'kidlab o'tildi. Ekologik barqarorlikni ta'minlash, Orol inqirozi oqibatlarini yumshatish, gender tenglikni ilgari surish va Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish kabi ustuvor yo'nalishlarga alohida e'tibor qaratildi.

Mazkur loyihalar yoshlarning raqamli savodxonligini oshirish, xotin-qizlarni iqtisodiy qo'llab-quvvatlash, sog'liqni saqlash

DO'STLIK VA O'ZARO HAMJIHATLIK YO'LIDA

Parlament yuqori palatasi rahbari Tanzila Norboyeva Merosni muhofaza qilish xalqaro alyansi – ALIPH Kengashi raisi, Fransiya Prezidentining maslahatchisi Bariza Hiari bilan uchrashdi.

Suhbat chog'ida O'zbekiston va Fransiya o'rtasida ikki tomonlama munosabatlarni yanada rivojlantirish, madaniy-gumanitar sohadagi hamkorlikni chuqurlashtirish istiqbollari muhokama markazida bo'ldi. San'at, madaniyatlararo muloqot va tarixiy-madaniy merosni asrab-avaylash borasida qo'shma tashabbuslarni kengaytirish masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

Uchrashuv doirasida yuqori darajadagi muntazam ikki tomonlama muloqot va almashinuvlar asosida davom etayotgan parlamentlararo hamkorlikni rivojlantirish masalalariga ham to'xtalib o'tildi. Parlamentlarning tegishli qo'mitalari va do'stlik guruhlarini orqali hamkorlikni faollashtirish muhimligi ta'kidlandi.

Yangi restavratsiya tashabbuslari, yoshlar va volontyorlarni merosni asrab-avaylashga jalb qilish dasturlari, shuningdek, mutaxassislarning kasbiy darajasini oshirishga qaratilgan qo'shma loyihalar orqali hamkorlikni kengaytirish istiqbollari u yuz berildi.

Uchrashuv yakunlari bo'yicha tomonlar ikki mamlakat xalqlari o'rtasidagi do'stlik va o'zaro hamjihatlikni mustahkamlashga xizmat qiladigan madaniyat, san'at va madaniyatlararo muloqot sohasidagi sheriklikni yanada rivojlantirish va hamkorlikni kengaytirishdan o'zaro manfaatdor ekanligini bildirdi.

"Xalq so'zi".

BAXTLI BOLALIKNI TA'MINLASHGA QARATILGAN XALQARO SHERIKLIK

Bundan tashqari, yaqinda Toshkentda bo'lib o'tgan Parlamentlararo Ittifoqning 150-yubiley assambleyasida ishtirok etgan BMT Bosh kotibining maxsus vakili Najat Maala butun dunyo parlamentlarini zo'raonlikka qarshi qonunchilik sa'y-harakatlarini birlashtirishga chaqirdi: "Bundan keyin ham parlamentlar, hukumatlar, nodavlat tashkilotlarining faoliyatida, shuningdek, mintaqaviy va xalqaro platformalarda ushbu masalani doim ilgari surishimiz lozim".

muhim bosqich bo'lishini alohida ta'kidladi. Mazkur strategiya zo'raonlikka qarshi kurashishda tizimli va barqaror yondashuvni shakllantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, O'zbekiston "Pathfinding Global Alliance" – Bolalarga nisbatan zo'raonlikka barham berish yo'llarini izlash global ittifoqiga qo'shilib, Markaziy Osiyo davlatlarini bolalarga nisbatan zo'raonlikka qarshi kurashishda yanada faol hamkorlikka chaqirdi.

Bugun bolajonlarimizning ovozi tinglay olish har qachongidan ham dolzarb. Biz barchani "mitti qalblarning katta og'riqlari"ga quloq solish, ularga gapirishga imkon berishga chorlaymiz", deya qayd etdi.

Tadbirda so'zga chiqqan YUNISEF ijrochi direktori Ketrin Rassel O'zbekistonning bolalar xavfsizligini ta'minlash borasidagi siyosatini yuksak baholab, 2025 – 2025-yillarga mo'ljallangan ko'p tarmoqli strategiya va harakatlar rejasining qabul qilinishi

Ijtimoiy himoya milliy agentligi direktorining birinchi o'rinbosari Shahnoza Mirziyoyeva o'z nutqida: "Barcha bolajonlarni yovuzliklardan asrash – biz erishishimiz lozim bo'lgan eng oliy maqsad. Zulmga barham berish – faqat huquqiy emas, insoniy burchimizdir! Chunki bolalarning begonasi bo'lmaydi. Bolalar azobiga o'rin yo'q!

"Xalq so'zi".

MADANIYAT TASHKILOTLARI FAOLIYATI SARHISOBI

Oliy Majlis Senatining Yoshlar, xotin-qizlar, madaniyat va sport masalalari qo'mitasi raisi O. Qozixonova boshchiligidagi ishchi guruh "Madaniy faoliyat va madaniyat tashkilotlari to'g'risida"gi Qonunning Qashqadaryo viloyatida ijrosini ta'minlash borasida amalga oshirilgan ishlar holatini o'rganmoqda.

Senatorlar – hududlarda

Ma'lumotlarga ko'ra viloyatda madaniyat boshqarmasi, 16 ta tuman va shahar bo'limi, 2 ta davlat teatri, O'zbek milliy maqom markazi, O'zbekiston davlat filarmoniyasi, "O'zbekkonsert" davlat muassasasi bo'limlari, ko'zi oqizlar uchun maxsus kutubxona, shuningdek, 60 ta madaniyat markazi va 25 ta bolalar musiqa va san'at maktabi faoliyat yuritmoqda.

Ishchi guruh ushbu madaniyat tashkilotlarining faoliyatini tahlil qildi. Dastlabki o'rganishlar Nishon, G'uzor, Koson, Kasbi va Mirishkor tumanlari hamda Qarshi shahrida olib borildi. O'rganishlar davomida "Madaniy faoliyat va madaniyat tashkilotlari to'g'risida"gi Qonunning ijrosini ta'minlash maqsadida tashkilotlar tomonidan qabul qilingan qonunosti hamda

idoralararo normativ hujjatlar va ularning ijrosi, madaniyat hamda san'atni rivojlantirishga doir hududiy maqsadli dasturlar, shuningdek, madaniy faoliyat va madaniyat tashkilotlari to'g'risidagi qonunchilikka rioya etilishi monitoring qilindi. Bundan tashqari, iste'dodli yoshlarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan ishlarga alohida e'tibor qaratildi.

Sarhisob natijalari xalq deputatlar mahalliy Kengashlari deputatlari, mutasaddi vazirlik va idoralar hamda ularning hududiy boshqarmalari rahbarlari ishtirokida Senat qo'mitasi majlisida muhokama qilindi.

Ishchi guruhning ushbu yo'nalishdagi faoliyati davom etmoqda.

"Xalq so'zi".

KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH ISHLARI KUCHAYTIRILADI



Oliy Majlis Senatida "Mahalliy Kengashlar tomonidan korruptsiyaga qarshi kurashish masalalari: ustuvor vazifalar" mavzuida mahalliy Kengashlar uchun seminar tashkil etildi.

Seminar

ekspertlar va OAV vakillari ishtirok etdi. Unda Senatning Sud-huquq masalalari va korruptsiyaga qarshi kurashish qo'mitasi a'zolari, mahalliy Kengashlarning korruptsiyaga qarshi kurashish va xavfsizlik masalalari bo'yicha doimiy komissiyalari raislari, mahalliy Kengashlar deputatlari, kotibiyat mudirlari,

hisobot (axborot)larini eshitish, mahalliy byudjetni tasdiqlash va uning ijrosini nazorat qilish hamda mahalliy Kengashlarning qonun ijodkorligi faoliyatida korruptsiyaga qarshi kurashish masalalariga alohida to'xtalib o'tildi. Ayniqsa, bu borada mahalliy Kengashlarning korruptsiyaga qarshi kurashishga oid faoliyatini axborot-tahliliy va tashkiliy jihatdan ta'minlash mahalliy Kengash kotibiyati tomonidan amalga oshirilishi, zarur hollarda ular hujjatlar,

ustuvor vazifalar" mavzuida mahalliy Kengashlar uchun seminar tashkil etildi.

ustuvor vazifalar" mavzuida mahalliy Kengashlar uchun seminar tashkil etildi.

ustuvor vazifalar" mavzuida mahalliy Kengashlar uchun seminar tashkil etildi.

ustuvor vazifalar" mavzuida mahalliy Kengashlar uchun seminar tashkil etildi.

ustuvor vazifalar" mavzuida mahalliy Kengashlar uchun seminar tashkil etildi.

"Xalq so'zi".

INSON MANFAATLARI VA IJTIMOIY HIMOYASI KAFOLATI



O'zbekiston "Milliy tiklanish" demokratik partiyasi fraksiyasi yig'ilishida "Migratsiya jarayonlarini boshqarish tizimi takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonun loyihasi muhokama qilindi.

Ushbu qonun loyihasi bilan Migratsiya agentligi O'zbekistondan tashqaridagi ishga joylashtirish bo'yicha xizmatlar uchun haq undirish borasidagi taqib olib tashlanyapti. Xususiy bandlik agentliklarining moddiy-texnika bazasi va ular rahbarlarining malakasiga talablar belgilanmoqda. Shuningdek, Migratsiya agentligi zimmasiga xususiy bandlik agentliklari faoliyatini baholash mezonlarini belgilash va ularning reytingini tuzish, xususiy bandlik agentliklari xodimlari uchun o'qitish va qayta tayyorlash dasturlari joriy etish kabi vazifalar yuklatilmoqda.

Loyihani tayyorlashda Singapur, Vetnam, Hindiston, Filippin kabi davlatlarning xususiy bandlik agentliklarining tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarini o'rganib chiqilgan hamda milliy qonunchilikka mos keladigan normalar qisman inobatga olingani ta'kidlandi. Fraksiya a'zolari ushbu hujjat xorijda vaqtincha mehnat faoliyatini amalga oshirish istagida bo'lgan O'zbekiston fuqarolarining

muhojazaralarini bildiradi. Savol-javoblar va bildirilgan fikrlardan so'ng ushbu hujjat deputatlar tomonidan qo'llab-quvvatlandi. O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi fraksiyasi yig'ilishida ish vaqtidan tashqari ish uchun kamida to'rtta hujjatlarini ijro etish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish haqida"gi qonun loyihasini ko'rib chiqdi.

huquqlarini himoya qilish, migratsiya sohasida sog'lom raqobatni shakllantirish holda unga xususiy sektorni yanada kengroq jalb etish, ko'rsatiladigan xizmatlarni raqamlashtirishga xizmat qilishdan kelib chiqib loyihani qo'llab-quvvatlandi.

O'zbekiston "Adolat" sotsial-demokratik partiyasi fraksiyasi yig'ilishida deputatlar "Ijro ishi bo'yicha kafolat mablag'larini kiritish instituti joriy etilishi munosabati bilan "Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish haqida"gi qonun loyihasini ko'rib chiqdi.

Aytilganidek, loyiha bilan mamlakatimiz qonunlariga bir qator muhim o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilmoqda. Jumladan, "Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to'g'risida"gi Qonunga mulkiy tushadgi sud hujjati bo'yicha majburiyatlarining bajarilishini majburiy ijro organining depozit hisobvaragiga pul mablag'larini o'tkazish yo'li bilan ta'minlashga, ya'ni ijro ishi bo'yicha kafolat mablag'larini kiritish orqali amalga oshirishga oid normalar kiritilmoqda. Bunda ijro ishi bo'yicha kafolat mablag'larini kiritish ijro ishi yuritishni to'xtatib turish, qarzdorga va uning mol-mulkiga nisbatan qo'llanilgan cheklovlarini bekor qilish uchun asos bo'lishi nazarda tutilyapti.

Yig'ilishda qayd etilganidek, ushbu qonun loyihasi sud qonuni o'z foydasiga qabul qilingan shaxslarning qonuniy manfaatlarini hamda sud qarorlarining so'zsiz ijro etilishini ta'minlashga xizmat qiladi. Munozaralar davomida fraksiya a'zolari qonun loyihasi yuzasidan o'z fikr-

Fraksiya a'zolari ish vaqtidan tashqari mehnatga jalb qilish va buning uchun oshirilgan tartibda haq to'lash amaliyoti haqida tashabbuskorlarga bir nechta savollar berildi. Mutasaddilar tomonidan deputatlar savollariga batafsil tushuntirish berildi. Qizg'in muhokamadan so'ng qonun loyihasi deputatlar tomonidan qo'llab-quvvatlandi.

Fraksiya yig'ilishida migratsiya va uning qonuniy asoslarini yanada takomillashtirishga qaratilgan qonun loyihasi ham muhokama etildi.

Unga ko'ra xususiy bandlik agentliklariga xorijda vaqtincha mehnat faoliyatini amalga oshirish istagida bo'lgan fuqarolarni kasb-hunariga va chet tillarga o'qitish bo'yicha o'quv kurslarini tashkil etish hamda ushbu jarayonga hamkor xorijiy ish beruvchilarni jalb qilish huquqini berish nazarda tutilmoqda.

Deputatlar qonun loyihasiga kiritilayotgan shu va boshqa o'zgartirish hamda qo'shimchalarni e'tirof etgan holda uni qo'llab-quvvatlashdi.

O'zbekiston Ekologik partiyasi fraksiyasi yig'ilishida muvofiqlikni baholash organlarining mas'uliyatini yanada oshirish hamda mahsulotlarni o'z ixtiyori bilan chiqarib olgan tadbirkorlarga yengillik berishga qaratilgan qonun loyihasi ko'rib chiqildi.

subyektlarini tegishli talablarga nomuvofiq bo'lgan mahsulotlarni o'z ixtiyori bilan savdodan chiqarib olishni rag'batlantirishga qaratilgan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilmoqda.

Yig'ilishda fraksiya a'zolari qonun loyihasining ahamiyatiga alohida to'xtalib, unda belgilanayotgan ayrim normalar bo'yicha o'z fikr-mulohazalarini, taklif va tavsiyalarini bildirdi. Berilgan savollarga qonun tashabbuskorlari tomonidan batafsil tushuntirish berib o'tildi. Muhokamadan so'ng qonun loyihasi fraksiya a'zolari tomonidan qo'llab-quvvatlandi.

Shuningdek, ish vaqtidan tashqari ish uchun haq to'lash va uning davomiyligini soddalashtirishga qaratilgan qonun loyihasi ham qizg'in muhokama qilindi.

Mazkur qonun loyihasi bilan Mehnat kodeksi ish vaqtidan tashqari ish uchun haq to'lash va uning davomiyligini soddalashtirishga doir o'zgartirishlar kiritilmoqda. Xususan, ish vaqtidan tashqari ishga xodimni jalb etish yiliga bir yuz yigirma soatdan oshmasligi kerakligi haqidagi norma Mehnat kodeksidan chiqarib yuborilmoqda. Shuningdek, ish vaqtidan tashqari ishning bir kunda dastlabki ikki soati uchun kamida bir yarim, ikki soatdan ortiq qismi uchun kamida ikki hissa miqdorida haq to'lanishi belgilanmoqda.

"Xalq so'zi".

«Genderga yo'naltirilgan siyosat va byudjetlarni ilgari surish: O'zbekistonda shaffof, inklyuziv va hisobdor boshqaruv sari» loyihasi rasman ishga tushirildi.

XALQ YETAKCHISI

YOXUD VAQT SINOVIDAN O'TAYOTGAN ISLOHOT FALSAFASI

Bobomiz Temur bu ta'kid bilan guvohlik qilish mas'uliyatini qalam ahli zimmasiga yuklamog'ida. "Yetakchi o'z vazifasini ado etadi, lekin uni millatga tanitish ziyolilar vazifasidir," deb bejizga aytmagani edi.

Shu ma'noda **Mustafo Kamol Ota turk** ham shunday degan edi: "Millatning idroki qalamning qalb bilan yozgan so'zida namoyon bo'ladi. Agar ziyolilar sukut qilsa, yetakchining buyukligi ham sukunatga botadi".

Bu iboralar shunchaki fikr emas, ziyoli va qalam ahli uchun tarixiy mas'uliyatning eng teran ifodasidir. Agar qalam so'zlamasa, tarix ham guvohlik qilmaydi.

Shuning uchun bugun so'z aytish majburiyat emas, **vidon amridir**. Bugun yozish ulug'likni ko'rsatish emas, balki **millatning qalbi uning o'tishidir**.

Ammo biz sukutdamiz.

So'nggi to'qqiz yilda millat yetakchisi xalqimiz uchun nimalarni amalga oshirdi? Farmonlar chiqdi, islohotlar boshlandi, maktablar, madrasalar, masjidlilar, shifoxonalar qurildi, inson huquqlari kafolatlandi. Har bir odam hayotida bir islohotning ta'siri bor. Lekin... shukronani ifoda etgan satrlar qani, ular qayerda?

Bu sukut adolat emas. Bu sukut noshukrlikning eng yaqqol ko'inishi desak, mubolag'a bo'lmaydi.

Biz shuncha yaxshi o'zgarishlar bo'lyapti, deb qayd qilamiz. Ammo qaysi biri uchun qalbdan so'z ayta oldik? Qachon oxirgi marta "bu ish ortida turgan inson kim?" deb o'yladik? Afsuski, o'ylamaymiz.

Qachon uning yuzlab qarorlari, minglab tashabbuslari ortidagi og'riq, el taqdiri, kechasis kunlar haqida fikr qildik? Yoki biz uxlaganimizda, u kishi uyug' bo'lishini, o'z xalqi, millati, unga ishongan millionlab qalblar tashvishi sababli tong otirishini his eta olamizmi?

To'g'ri, ba'zi yetakchilar tarixda qoladi. Ba'zilari esa millat qalbidan yashaydi. Birinchisiga haykal qo'yiladi. Ikkinchisi esa xalq qalbidan abadiy joy oladi.

Shuning uchun ham biz sukut qilmasligimiz kerak. Chunki bugun uqam ta'rif kerak emas. Unga xalqning hissi, qalbning minnatdorligi kerak. Aks holda, bugungi sukut erangi kunning ko'z yoshiga aylanishi mumkin.

Millatning nidosi – yetakchini anglash ohangida

Ba'zan millatning ovozi ko'rinmaydi. U na ovoz kuchayganda eshitiladi, na sukut chuqurlashganda. Millatning ovozi uning qalbidagi nido, **uning** anglash salohiyatidagi oydinlikdir.

Bu nido hech qanday farmon bilan chiqmaydi. U shaxsiy manfaat emas, millat taqdiri uchun jon kuydiradigan yetakchining amallari, qarori, qiyofasi orqali shakllanadi. Ushbu nido millat qalbidan ufqqa tomon tinibgina ko'tariladi, u befarq yurtda emas, hissiyoti jonli, qalban tirik ellardagina yashaydi.

Bugungi kunda millatimiz qalbidan shunday bir og'riq yashirganki, u bayon qilinmagan sevgiga, anglanmagan mehrga, minnati aytilmagan fidokorlikka aylangan. Bu og'riq tarixiy yetakchini his etmaslik og'rig'idir. Bu insoniyatning eng og'riqli holati: jon kuydirayotgani kuzatish, lekin minnatdorlik bildirilmislik holatidir.

Millat faqat ergashmasligi kerak, u anglash salohiyatiga ham ega bo'lishi lozim. Chunki har bir anglanmagan yetakchi kelajakda afsuslar, "qani endi..." degan nolalar sababchisidir.

Nazarimizda, bugungi shukronalikning eng oliy ifodasi bu – **anglashdir**. Yetakchini to'g'ri tushunish, uning qalbidagi niyat va yuragidagi xalq dardini his qilish – bu shunchaki siyosiy targ'ibot emas, **mafkuraviy madaniyatning boshlang'ich nuqtasi hisoblanadi**.

Biz, afsuski, ba'zida "bor-yo'q"ni hech qanday tarozisiz baholaydigan millatga aylanib qolayotgandekmiz. Nima borligini his etmasdan, nima yo'q bo'lsa, shuni talab qilishga odatlanib qolaymiz.

Bir paytlar xalqlar o'z yetakchilarini ulug'lash uchun hikmatlar to'qir edilar. Chunki ular himoyasiz, adolatsiz, haqoratlar ichida yashagan elni qadri hayot sari yetaklagan edilar. Bizda esa yetakchi mehr qo'ygan yurtda mehr qaytarilmayotganini ko'rish alamiz.

Bu noshukrlik emas, balki anglash madaniyatining zaifligidir. Bizga bugun olisdan qarab emas, yurakdan turib qarash

kerak. Millatni nafaqat boshqaruvda, balki qalbdan his etgan yetakchini qalb bilan qabul qilish madaniyati yetishmayotgandek go'yo.

Xalqimizda "manfaat bor joyda muhabbat ham bor" degan bir noto'g'ri ruh shakllanayotgandek. Ammo xalq – manfaat bilan emas, **fidokorlik bilan bog'langan yetakchini** anglaganida ma'naviy tiklanish boshlanadi.

Bizning xalq, aslida, chin yurakdan ardoqlashni biladi. Lekin u bunday hisni bildirishga kamdan-kam urinadi. His etiladi, lekin aytilmaydi. Bu milliy xarakter, ammo bu xarakterni boshqarish va yangilash zarur. Chunki biz o'z tarixiy yetakchimizga nisbatan sukutda bo'lsak, bundan tarix zarar ko'radi. Biz bugungi anglash imkonini boy bersak, ertangi kun o'tmishni ayblaydi. Shuning uchun xalqning qalbidagi eng aniq ohang, anglash ohangidir. U sevgi bilan emas, mas'uliyat bilan to'la. U madh etish bilan emas, haqiqatni bilish va tan olish bilan yaraladi.

Shuning uchun insonparvar yetakchini qadrlash bu siyosiy mavqe emas, balki milliy tafakkurning yorug' ko'zgusi hisoblanadi. Ana shu ko'zguni tiklay olish esa bizdan og'ir ma'naviy kurashni talab qilmoqda. Ammo biz jimimiz.

Yetakchi kim? Faqat siyosiy shaxs emas...

Yetakchi faqat farmon beruvchi emas, balki o'zini fido etib qaror qabul qiluvchi insondir. Uning har bir qarori ortida qonun emas, xalq dardini, el taqdiri, millionlab yuraklar taqillayotgan darcha bor.

Yetakchi, o'z nomi bilan, oldinda boradi. Ammo u hech qachon "men ketayotgan yo'l to'g'ri" deb aytmaydi. U xalq tomon qarab, "mening ortimdan kelmag, men sizning orqangizdamiz" degan botinni ifoda etadi. Chunki u el bilan yonma-yon, yelkama-yelka yashamoqda.

U "men" demaydi, u "millat" deb fikrlaydi. Uning nutqida men degan kalima kam, lekin xalq degan so'z juda ko'p. Uning qalbidan shaxsiy manfaatga joy yo'q – u butun borligi bilan elga xizmatga bag'ishlangan.

Har bir tashabbusning zamirida xalqqa muhabbat, elga sadoqat, kelajak avlodga mas'uliyat mujassam. U ishonchni so'ramaydi balki amallari orqali uni xalq qalbidan oladi.

Dunyoda shunday yetakchilar borki, ular huquqiy asosda lavozimga keladi. Ba'zi yetakchilar esa qalb bilan millat ruhiga joylashadi.

Mana shunday yetakchi bugungi zamonda davlat rahbari emas, **millatning ma'naviy ustuni**, tafakkurga yetaklovchi, yuraklardan nur sochadigan shaxsiga aylanadi. Chunki u har bir insonning dardini eshitadi. Eshitibgina qolmaydi – u **dardni yuragida qayta so'rib, qarorga aylantiradi**. Shuning uchun ham u rahbar emas, balki **qalblarning ko'zgusi**. U hokimiyat uchun emas, el uchun yashayotgan timsoldir.

U shon-sharaf uchun emas, mas'uliyat uchun jon kuydirmoqda.

U davlatni boshqarishni shaxsiy kuch bilan emas, xalqning yuragi bilan ado etmoqda.

U oliy minbarlardan emas, mahallalar, ko'chalar, maktablar, shifoxonalar, qishloqlar orasida xalq bilan nafas olmoqda.

Mana shunday yetakchining ulug'ligi uning shunchaki rivojlanish raqamlarida aks etmaydi. Uning timsoli har bir fuqaro hayotidagi kichik, ammo yurakdan chiqqan o'zgarishlar orqali namoyon bo'ladi.

U xalq oldida ma'ruza qilmaydi, balki amali bilan xalq yuragida so'zlaydi.

"Faqat u amal qilgan, biz sukut qilganmiz..."

Tarixda ba'zi raqamlar borki, ularning miqyosidan ko'ra, mazmuni yurakka ta'sir qiladi. Bu raqamlar – shunchaki statistika emas, ayni vaqtda davlatning qalbidagi mas'uliyatning soyasi hamdir. Ular har bir oilaning, har bir inson taqdirining yumshoq, lekin teran aksidir.

Eslaylik, 2016 – 2025-yillar, bu mamlakatda o'zgarishlar yuz bergan davr emas. Bu, davlat va jamiyatning qayta tug'ilgan, **inson qadri siyosiy falsafaga aylangan** davrdir. Shu sababli bugungi o'zgarishlarni to'liq his qilish uchun biz, avvalo, savol bermog'imiz lozim:

"**Davlat nima uchun o'zgardir? Va bu o'zgarish kim uchun edi?**" Javob faqat bir so'zda yashirin: **inson uchun**.

Inson qadri – barcha islohotlarning yuragi.

Yangi O'zbekiston islohotlarining eng oliy konsepsiyasi – **inson qadri davlat siyosatiga aylantirish** bo'ldi. Ilgari "davlat uchun fuqaro" bo'lsa, endi "fuqaro uchun davlat" tamoyili hukm surmoqda.

Bu o'zgarish hech bir farmon bilan emas, qalb amri bilan amalga oshirildi.

Bugun jonajon yangi O'zbekistonda istiqomat qilayotgan har bir fuqaro borki, xalq bilan davlat o'rtasidagi masofa qisqarganini sezmay iloji yo'q. Mamlakat yetakchisi boshlagan islohotlar va tashabbuslar natijasida xalq nafaqat tinglandi, balki unga inson qadri prizmasi asosida yondashishlik qat'iy belgilandi. Siyosatdagi eng katta o'zgarish shu bo'ldiki, xalqqa suyanish yuksak ma'naviy mezonga, tarixiy mas'uliyatga aylandi.

Bir paytlar fuqaro propiska degan ma'muriy devor ortida yashar, hujjatsizlik uni davlatga begona qilar edi. Endi esa propiska cheklovlari bekor qilindi, ID-karta orqali barcha ma'lumotlar shaffof va yagona tizimga tushdi. Raqamlashtirish insonga davlatning yuzi emas, yuragi bilan murojaat etish imkonini yaratdi. Eng muhimi odamlar o'z yuragida erkinlikni his qila boshladi. Yoki uy-joy siyosatini ko'raylik.

Endilikda bu maqsad shaxsiy tashabbus emas, davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. 2017 – 2025-yilning mos davriga nisbatan 500 mingga uchin uy-joylar barpo etildi. "Yoshlar ipotekasi", "Ayollar uchun uy", "Ijtimoiy uylar" kabi dasturlar orqali yuz minglab oilalar shaxsiy boshpanali bo'ldi. Ipoteka shartlari yangilashirildi. Endi uy-joy faqat devor emas, xalq uchun davlat mehri bilan qurilgan boshpana sifatida qadrlanmoqda.

Haqiqiy davlat siyosatining yana bir mezonini ish bermasdan, mehnat qilish uchun imkoniyat yaratishdir. 2025-yilning mos davriga nisbatan ish bilan band aholi soni 6 millionga yaqinlashdi. Qishloq xo'jaligi, xizmat ko'rsatish, sanoat, qurilish – barcha sohada ish o'rnlari kengaydi. Davlat faol fuqaroning asosiy tayanchiga aylandi.

Yoki mahallaning fuqaroga yaqinlashishi,

"Bugun jonajon yangi O'zbekistonda istiqomat qilayotgan har bir fuqaro borki, xalq bilan davlat o'rtasidagi masofa qisqarganini sezmay iloji yo'q. Mamlakat yetakchisi boshlagan islohotlar va tashabbuslar natijasida xalq nafaqat tinglandi, balki unga inson qadri prizmasi asosida yondashishlik qat'iy belgilandi. Siyosatdagi eng katta o'zgarish shu bo'ldiki, xalqqa suyanish yuksak ma'naviy mezonga, tarixiy mas'uliyatga aylandi."

psixolog va ijtimoiy maslahatchilar bilan to'ldirilishi, manzilli yechimlarning shu yerning o'zida topilayotgani, bu mahalla institutining haqiqiy transformatsiyasidir. Endi mahalla faqat ijtimoiy tuzilma emas, balki xalqning og'rig'ini birinchi eshitadigan, yuragini birinchi his qiladigan tizimga aylanganmoqda.

So'nggi yillarda mahallaning tuzilmaviy-tashkiliy asoslari ham tubdan yangilandi. Prezident tashabbusi bilan "mahalla yetiligi" tizimi joriy etildi. Bu – muammoning yuzaga kelishidan avval hal etishning zamonaviy institutsional modeli emasmi?!

Endilikda mahalla raisi saylov orqali besh yillik muddatga saylanadigan bo'ldi. Bu demokratik yondashuv mahallada javobgarlikni oshirdi, raislarning mas'uliyatini his etishi va xalq ishonchiga munosib bo'lishga intilishini kuchaytirdi. Shuningdek, mahalla o'z byudjetiga ega bo'ldi. "Mahalla byudjeti" orqali jamoatchilik ishtirokida mablag'lar yo'naltirilishi, mahallaning ustuvor masalalari hal qilinishi xalqni davlat mablag'lari taqsimotiga ham javobgar etib qo'ydi.

Inson yuragiga kirgan islohotlar: Maqsad xalq yuragiga yetib borish bo'lsa, amalga oshirilgan islohotlar ham xalq tilida, xalq dardida gapirishi kerak. Ana shunday islohotlardan biri ta'limga ustozga berilgan davlat kafolatidir. Ikk bor pedagogning qadri qonun bilan belgilab berildi. "Pedagogning maqomi to'g'risida"gi Qonun qabul qilinib, o'qituvchiga bo'lgan munosabat milliy siyosat darajasiga ko'tarildi. Ustoz endi faqat dars beruvchi emas, balki millatni tarbiyalovchi muqaddas shaxs sifatida e'tirof etildi.

Tibbiyotda aholiga yaqinlashgan xizmat, onalar va bolalar salomatligiga qaratilayotgan ustuvor e'tibor, profilaktika

markazlarining kengayishi inson hayoti qadriga bo'lgan munosabatning amaldagi ifodasidir. Yangi shifoxonalar, dori-darmon ta'minotidagi yaxshilanishlar, oilaviy shifokor amaliyotining joriy etilishi sog'liqni saqlashni xalq darvozisiga olib keldi.

Fuqarolik jamiyatini shakllantirish borasida ham tub o'zgarishlar kuzatildi. Nodavlat notijorat tashkilotlari uchun yaratilgan huquqiy maydon, jurnalistlar erkinligiga bo'lgan kafolatlar, jamoatchilik nazoratini kengaytirish, bularning barchasi xalq ovozi qor darajasigacha olib chiqishga xizmat qilmoqda. Xalq endilikda tomoshabin emas, davlat boshqaruvida ishtirok etuvchi haqiqiy subyektaga aylandi. Ko'rinib turibdiki, yangi O'zbekistonda xalq yetakchisi faqat davlat rahbari emas, u xalq umidiga mas'ul shaxs sifatida namoyon bo'lmoqda. Mahalla, oila, ta'lim, sud, ish, boshpana bularning barchasidagi o'zgarishlarning markazida inson turibdi. Va bu inson – xalq. Bu xalq umid bilan yetakchisini kuzatib turgan, o'z hayotida yangilanishni his qilayotgan insonlardir.

Bu dalillardan xulosa shuki, yetakchi islohotlarni xalq uchun qilmoqda, biz esa sukutdamiz. Yetakchi har bir o'sib kelayotgan yosh avlod, har bir oila, har bir umid uchun fidokorlik ko'rsatmoqda, biz esa bu jasoratning qiymatini anglashga shoshilmayapmiz.

Ming afsuslar bo'lsinki, **sukutiga o'ralgan millatni** tarix kechirmaydi. Chunki sukut hamisha ham rizlik belgisi emas, balki adolatga nisbatan loqaydlik, haqiqatga nisbatan bee'tiborlik nishonasi hamdir.

Kelajakdagi afsus va nadomatdan bizni faqatgina bir narsa saqlab qoladi, bu ham bo'lsa **haqiqatni vaqtida anglash**.

Siyosiy yetakchilik emas, ma'naviy rahnamolik

Yetakchilik bu shunchaki lavozim emas. Bu millat qalbidagi yukni yuragida his qila



so'raydi. Bu suhbat shunchaki odob emas, bu aslida xalqning og'rig'iga hamdardlik ko'z yoshidir. Uning so'zlarida siyosiy ta'rif emas, yurakdan chiqqan nido bor:

– Har kunimizda azon ovozlari yangrab tursa, hayotimizda fayz bo'ladi.

Chunki u biladi: azon – qalbdagi shukronalik ramzi, vijdonning tirikligi belgisidir. Masjidlilar ko'payishi bino ko'payishi emas, inson qalbining ma'naviy maskani bo'lishi, e'tiqod erkinligining hayotga aylanishi demakdir. Shu sabab bugun masjidlilar soni qancha ekanligi haqidagi raqamlar emas, ularda yangrayotgan duolar muhimdir.

Aziz vatandoshlar, jahon tarixi shundan guvohlik bermoqdaki, har qanday jamiyatdagi katta-katta inqilobiy o'zgarishlar farmondan emas, tafakkurdan boshlanar ekan. Shu sababdan ham yetakchi bugun xalq ongu shuurini uyg'otishni asosiy maqsad qilib olgani bejizmasdir. Chunki u jamiyatni qonun bilan emas, g'oya bilan formatlayapti.

Yetakchi dars bermaydi, balki ibrat ko'rsatadi. Uning har bir qadamida xalq, har bir qarashida el taqdiri, har bir so'zida kelajak uchun mas'uliyat mujassam. Va shuning uchun ham u siyosiy yetakchi emas, u millatning ma'naviy rahnamosidir. Faqat biz buni anglamayapmiz.

Xalq yetakchisini himoya qilish – bu millatni himoya qilishdir

Do'stlar, xalq yetakchisi haqida sukut saqlash bu sukut hisoblanmaydi, bu bee'tiborlikning yorqin namunasidir. Aslida, haqiqiy yetakchi o'zini himoya qilishni so'ramaydi. U xalqini himoya qiladi. Lekin tarix shundan darak beradiki, el o'z yetakchisini himoya qilmagan jamiyatda hech bir millat o'z buyuk siyosini abadiy saqlab qololgan emas.

Buni tarixdagi misollardan ham ko'rish mumkin. Masalan, Sharq tarixida – Xorazmshoh Alovuddin Muhammad II yurtiga tashqi tahdidlar yaqinlashib kelayotgan bir paytda, xalq o'z yetakchisini anglamadi, uning atrofida jipslashmadi. Mo'g'ullar bosqini qarshisida jipslik o'miga parokandalik avj oldi. Yetakchi yolg'iz qoldi. Shu bois nafaqat podshohlik, balki yurt mustaqilligi, xalqning qat'iyatli erk ifodasi ham mag'lub bo'ldi. Vaholanki, agar xalq va yetakchi bir tanu bir jon bo'lganida, tarix boshqacha yo'nalish olishi mumkin edi.

Qadimgi Rimda esa buyuk harbiy va siyosiy yetakchi Gay Yuliy Sezar xalqqa islohotlar orqali adolat va barqarorlik olib kirishga harakat qilgan edi. Ammo uning yetakchiligi yatarlicha qadrlanmagan va himoya qilmagan jamiyat rahnamosini o'ttizdan ziyod senatorlarning pichog'i ostida yo'qotdi. Sezar o'ldirilganidan so'ng Rim Respublikasi parokanda bo'ldi, fuqarolar urushi boshlandi va demokratiya tugadi. Ya'ni yetakchini himoya qilmagan xalq o'zini himoya qilishdan mahrum bo'ldi.

Bu tarixiy misollar shundan dalolat beradiki: xalq yetakchisini anglamas, yo'qotadi. Asramasa, mag'lubiyatni ko'radi. Yetakchini anglash va asrash falsafasi xalqning o'z kelajagini, o'z taqdirini asrash demakdir.

Shunday ekan, xalq yetakchisini himoya qilish, shaxsni emas, millatni, milliy g'oyani, kelajakni himoya qilish deb tushunilmog'i, talqin etilmog'i lozim. Zero, millat uchun el-yurtini har kuni yoritib turgan ma'naviy chiroqni asrash fuqarolik burchimizdir.

Dunyo manzarasiga qaraylik, bugun hamjamiyat O'zbekiston yetakchisini yuksak e'tirof bilan tan olyapti. **Yangi O'zbekiston yetakchisini** butun jahon eshitaypti, o'z bag'rini ochyapti, sharafalayapti. Hatto qo'shni davlatlar rahbarlari faoliyati, shijoatiga tan berib, fuqarolari havas bilan qarashayotgani bu bizning baxtimiz emasmi? Va endi

buni biz ham, butun jamiyat ham teran anglab, "**bizning yetakchimiz – bizning iftixorimiz**" deb nido uradigan payt kelganini anglashimiz kerak. Qarangki, kuchli G'arb davlatlari hatto o'zi tanlagan rahbarlariga munosib ko'rmagan ordenlarni bizning yetakchimiz ko'ksiga taqyapti. Bu diplomatik ehtirom emas, bu xalq uchun jon fido qilgan yetakchiga berilgan jahon afkor ommasining elga qaratayotgan yuksak ishonchidir.

Modomiki, dunyo uni ardoqlayotgan ekan, bas, bu bizga baho bo'lib qolmasin. Modomiki, ular xursand ekan, demak, biz faxrlanishda namuna bo'lmo'g'imiz lozim. Chunki u kishi boshqalar havas qilib qarayotgan xalqparvar yetakchi. Va agar biz sukut qilsak, unga nisbatan tanqidlarni javobsiz qoldirsak, u zulmatda yolg'iz qolmas, lekin biz adolatdan yuz o'girgan bo'lib qolmaymizmi?!

Baralla aytishimiz lozim, xalq o'z yetakchisini himoya qilishi, bu Vatanni himoya qilish ekanini anglash fursati keldi. Chunki yetakchi – davlat ramzi, u millat yuragiga aylanganida uning obro'sini himoya qilish bugungi kunning eng muqaddas vazifasiga aylanadi va shunday bo'ladi ham.

Xalq yetakchisi ayni vaqtda yangi O'zbekiston bunyodkori hamdir. Bu maqomlar shunchaki ta'rif hisoblanmaydi, balki 2016-yildan beri kechayotgan jadal islohotlar, el og'irini yelkasida ko'tarish, har bir qarorda xalq manfaatini birinchi o'rinda qo'yish amaliyoti bilan mustahkamlangan timsoldir.

Ushbu maqoladagi har bir satr el muhabbati bilan bitildi. Bu ulug'lash uchun emas, anglash uchun, sevish uchun emas, his qilish uchun, haqiqatni izlash uchun emas, uni tan olish uchun.

Unutmaylik, millat bugun yashayotganini anglasa, uning ertasi tarix bo'lib yoziladi. Shuning uchun ham bugungi hayotni, uning po'ydevorida turgan yetakchini tanitayotgan xalq ertangi kelajagini himoya qilgan xalq sifatida qoladi. Va agar biz o'z yetakchimizni himoya qilmasak, nafaqat shaxs, balki Yangi O'zbekiston g'oyasi ham himoyasiz qoladi.

Do'stim, endi sukut qilmaslik vaqti keldi. Qalam so'zga aylansin, so'z esa haqiqatga. Yangi O'zbekistonni suyab turgan ustunga bo'lgan muhabbat bugun millatning imtihoni masalasidir.

Tarix qayd etadi, lekin xalq qalbi unutmashligi kerak

Bugun u inson bizning yonimizda. Ertaga u haqida kitoblar yoziladi. Kelajak avlodlar uning jasoratini o'qib, ulug'lashi mumkin. Lekin biz bugun yozmasak, bugun gapirmasak, bugun anglamasak biz tarix oldida javobgar bo'lib qolamiz.

Chunki yetakchini ulug'lash emas, uni teran anglash millat abadiylikdagi kafolati bo'lib kelgan. Buni anglash uchun hech qanday lavozim shart emas. Bu hisning nomi sadoqatdir.

Afsuski, bunday ma'naviy burchni o'z zimmasizga yetarlicha ola olmayapmiz. Jamoatchilik ongini uyg'otish, xalqni o'z yetakchisiga yaqinlashtirish, qalblar orasidagi ko'prikn mustahkamlash kerak bo'lgan paytda, biz hali ham bee'tiborlik ko'chlasida yuribmiz. Balki bu sukut ortida og'riklilik, balki anglashga qodir emaslik yotar. Chunki bunday yuksak burchni his qilish uchun muhabbat kerak, qalb uyug' bo'lmog'i lozim, ma'naviy jasorat kerak.

Ammo haqiqat shundaki, yetakchini xalqqa anglatish uchun u yoki bu tashkilotlarda ishlash shart emas. Unga muhabbat bilan qaraydigan har bir qalb bugun minbar, maydon va sadoqat manbai bo'lishi kerak. Chunki millatni yuksaltirish yo'lidagi har bir harakat, avvalo, qalbdan boshlanadi, mas'uliyat hissida davom etadi va fidoyilik bilan yakunlanadi.

Ehtiyot bo'laylik, agar ma'naviyat degan muqaddas maydonda ham sukut hukm sura boshlasa, demak, biz el emas, go'yo tomoshabin olomonga aylangan bo'lamiz. Yetakchi uchun xizmat bu o'z-o'zini ulug'lash emas, balki xalq uchun o'zini unutib yashashdir.

Abdulla Avloniy shunday degan edi: "Millatni mahv etmoq uchun uning ma'naviyatini yo'qotmoq kifoya". Ma'naviyat esa milliy o'zlikni anglashdan boshlanadi. Shuning uchun ham bizning sukutimiz – ma'naviyatning sukuti emas, balki mas'uliyatning sukutidir.

Tarix qayd etadi. Lekin xalq qalbi unutmashligi kerak.

Furqat JO'RAQULOV, siyosiy fanlar doktori, professor.

JAMIYAT KELAJAGINI BELGILAYDIGAN TASHABBUSLAR

Yoshlar – mamlakatning eng katta boyligi, bebaho xazinasi. Ular sog'lom, kuchli va bilimli bo'lsagina davlatning farovon kelajagiga zamin yaratiladi. Buning uchun, avvalo, ta'lim sifatini uzluksiz takomillashtirib borish zarur. Zero, ta'limda kechikish kechirib bo'lmaydigan xatodir.

Nuqtai nazar

Shu yilning 15-may kuni Prezidentimiz raisligida o'tkazilgan maktab ta'limi tizimidagi islohotlar samaradorligini yanada oshirish bo'yicha ustuvor vazifalar muhokamasi yuzasidan videoselektor yig'ilishida yangi O'zbekistonda olib borilayotgan tarixiy islohotlarning debochasi sifatida maktab ta'limi tizimidagi ishlar tahlil etilib, navbatdagi ustuvor vazifalarni belgilash kun tartibidagi asosiy masala bo'ldi. Jumladan, maktab o'qituvchilari yangi, zamonaviy metodlarni puxta o'zlashtirishi va o'quvchilarga sifatli ta'lim berishi, buning uchun pedagogika yo'nalishidagi oliy ta'lim sifatini yanada oshirish kerakligi aytiladi. Bu borada zarur chora-tadbirlar belgilab olindi.



natijalar bilan tanilayotgani ham ta'lim sohasidagi islohotlar, qolaversa, oliyog'hamoosining mehnati natijasidir. Jumladan, Avstraliyaning "UniRank" reyting platformasida mahalliy miqyosda 23-o'rinni, Gruziyaning xalqaro universitetlar reyting tashkiloti – "Round University Ranking" reytingida o'qitish indikator bo'yicha 883-o'rinni egallagan ta'lim dargohi Kanadaning Xalqaro yutuqlar tadqiqot markazi – "IARS" reytingida "Yil universiteti – 2023" xalqaro tanlovi g'olibi bo'ldi. Indoneziyaning "UI Green Metric World University Ranking" xalqaro reytingida barqaror rivojlanayotgan universitet sifatida dunyo oliyog'hamolari ichida 738-o'rinni, Turkiyaning "HE" – "Higher Education" xalqaro reytingida esa 3-o'rinni egalladi.

Mazkur yutuqlar faqatgina debocha xolos. Bunday ulkan sharoitlar davrida universitet jahonning eng kuchli, eng nufuzli oliyog'hamolari qatoriga kirish uchun, albatta, rivojlanishdan to'xtamaydi. Videoselektor yig'ilishida davlat rahbari yoshlarni nufuzli xorijiy universitetlarda o'qitish masalasiga alohida to'xtaldi. Farzandlarimiz juda

iqtidorli ekani, faqat ularni to'g'ri yo'naltirib, maqsadli tayyorlash zarurligi ta'kidlandi. Shu maqsadda "Prezident iqtidorli farzandlari" milliy dasturi boshlanadi, Al-Beruniy nomidagi xalqaro maktab-internati tashkil etiladi. Unga 8-sinf bitiruvchilaridan 60 nafari saralab olinib, reytingi yuqori oliyog'hamoosga maqsadli tayyorlanadi.

Yig'ilishda xususiy oliyog'hamoos faoliyati ham tahlil etildi. Xususiy OTMda pedagogika yo'nalishi bo'yicha o'qitilgan talabalarining 70 foizi maktabgacha va boshlang'ich ta'lim hamda filologiya bo'yicha tayyorlanmoqda. Bu bejiz emas, albatta. Ta'lim jamiyatning ustuni, oliyog'hamoos esa mana shu ustunning jon quvgatidir. Najot ilmda, shu bois ta'limni bugun rivojlantirmasak, tomirimizdagi daholur qonini qo'zg'otmasak, ko'ksimizdagi milliy g'ururni uyg'otmasak ertangi avlodlar bizni aslo kechirmaydi.

Prezidentimizning tegishli qarorlari ijrosini ta'minlash hamda iqtidorli maktab bitiruvchilariga muddatidan oldin talaba bo'lish imkoniyatini berish maqsadida Farg'ona davlat universitetida har yili fizika, informatika, kimyo, biologiya fanlaridan universitet olimpiadasi o'tkazilib kelinmoqda.

Joriy yilgi olimpiadada shahar va tumanlardagi maktablardan 1,5 mingga yaqin o'quvchilar ishtirok etdi. So'nggi bosqichda g'olib bo'lgan 12 nafar o'quvchi muddatidan oldin universitet talabaliqiga munosib deb topildi. Shuningdek, mazkur olimpiada universitetning 4-bosqich talabalari o'rtasida ham o'tkaziladi va respublikada o'rin egallagan talabalar magistratura yo'nalishiga kirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Bitiruvchi talabalarni ish bilan ta'minlash borasida ham alohida tadbirlar olib borilmoqda. Masalan, universitetda uyushtirilayotgan "Karyera kuni" tadbirlarini aytish mumkin. May oyida bo'lib o'tgan mazkur tadbirda

60 ga yaqin tashkilot va muassasalar qatnashib, minglab talabalar ish bilan ta'minlandi. Maktab bitiruvchilari uchun tashkil etilgan "Ochiq eshiklar kuni"da Farg'ona viloyatidagi maktablarning bitiruvchi o'quvchilari o'zlari istagan soha bo'yicha fakultet va kafedralar haqida batafsil ma'lumotlarga ega bo'lishdi. Bunday tadbirlar yoshlarimizni o'z oldiga qat'iy maqsad qo'yishi va astoydil bilim olishlari uchun katta turki bo'ladi.

Ta'lim tizimida songa emas, sifatga e'tibor berilishi, ya'ni fanlar soni 20 tadan 15 taga, ta'lim yo'nalishlari esa 31 tadan 17 taga tushirilib, o'quv yuklamasi 20 foizga qisqartirilishi va yana bir katta imkoniyat sifatida pedagogika oliyog'hamoosining xorijiy til sertifikatini bor o'qituvchilari Buyuk Britaniya, Germaniya va Singapur kabi davlatlarda malaka oshirishga yuborilishi bu boradagi yana bir samarali qadam bo'ladi, deyish mumkin. Bundan tashqari, maktablardagi 17 ta fanning har biri bo'yicha alohida tayanch maktablar tashkil qilinadi. Har bir tayanch maktabning 1 nafar o'qituvchisi malaka oshirish markazida o'z yo'nalishida xalqaro dasturlar asosida chuqur tayyorlanadi va ularga trener maqomi beriladi. Ushbu trenerlar o'zlariga birlashtirilgan hududdagi 25 nafar yetakchi o'qituvchini o'qitadi, yetakchi

o'qituvchilar esa o'z maktabidagi muallimlarning malakasini oshirib boradi.

Pedagoglarga berilayotgan bunday imkoniyatlarni o'n yil avvalgisiga bilan aslo solishtirib bo'lmaydi. Ulkan sharoit yaratayotgan Yurtboshimizning asl maqsadi jamiyatda o'qituvchi degan kasb egalari qadriyatini tiklash, mavqeiini mustahkamlash, salohiyatini oshirishdir. Yaqin tarixga nazar salsak, o'qituvchilardan arzon ishchi kuchi sifatida foydalanish, majburiy mehnatga jalb qilish, ta'lim-tarbiyaga panja ortidan qarash holatlari yodimizga tushadi va bugungi kunga shukronalik hissi qalbimizni chulg'aydi.

Yoshlarning ta'limdan tashqari bo'sh vaqtni samarali tashkil qilish maqsadida "Barkamol avlod" maktablari, "Yoshlik" sport jamiyati va o'quvchilar markazlari yagona tizimga birlashtiriladi. Ularda xorijiy tillarni o'qitish, sun'iy intellekt, dasturlash va animatsiya kabi yangi to'garaklar ochiladi. Shuningdek, o'quvchilar o'rtasida turizmni rivojlantirish bo'yicha yangi tizim joriy etiladi. Qoraqalpog'iston, Xorazm, Samarqand, Buxoro va poytaxtdagi "Barkamol avlod" maktablari kamida 100 o'rinli bolalar sayyohlik bazasi tashkil qilinadi. Har yili 1 million o'quvchi uchun O'zbekiston bo'yab sayohatlar uyushtiriladi.

E'tiborlisi, bunday tashabbuslar O'zbekiston ta'lim sohasida yangi davrni boshlab bermoqda. Ushbu islohotlar yosh avlodga chuqur bilim berish, ularning iste'dodini rivojlantirish va kelajakda mamlakat taraqqiyotiga munosib hissa qo'shishga qaratilgan bilan yanada ahamiyatlidir. Yana bitta dalil: joriy yilda yangi maktablar qurish maqsadida Islom taraqqiyot bankidan 200 million dollar jalb etildi. Buning evaziga 58 ta maktab qurilib, 72 mingta o'quvchi o'rni yaratiladi. Bu mablag'lar O'zbekistonning ta'lim infratuzilmasini yanada yaxshilashga xizmat qiladi. Mazkur jarayon shunchaki o'quv dasturlarini yangilash yoki binolarni ta'mirlashdan iborat emas, balki jamiyatning kelajagini belgilaydigan muhim investitsiyadir. Yaxshilangan maktab ta'limi tizimi bilimli, kreativ va tanqidiy fikrlaydigan yoshlarni tarbiyalaydi. Bu esa mamlakat poydevori qanchalik mustahkam qurilayotganini bildiradi.

Bahodirjon SHERMUHAMMADOV,
Farg'ona davlat universiteti rektori, professor.



Dzyudochilarimiz Osiyo kubogida birinchi

Poytaxtimizda bo'lib o'tgan dzyudo bo'yicha o'smirlar va yoshlar o'rtasidagi Osiyo kubogi g'oliblari aniqlandi.



Sakkiz mamlakatdan vakillar tashrif buyurgan ushbu musobaqada o'smirlar o'rtasidagi bellashuvlar yakuniga ko'ra O'zbekiston terma jamoasi a'zolari 10 tadan oltin va kumush hamda 18 ta bronza medallarni jang'arib, umumjamoa hisobida birinchi bo'ldi.

Shuningdek, "U20" terma jamoamiz ham ushbu bellashuvlarda munosib ishtirok etib, 9 tadan oltin va kumush hamda 14 ta bronza medallarga sazovor bo'lib, umumjamoa hisobida g'oliblik shohsupasini egalladi.

Sinxron suzuvchilarimiz muvaffaqiyati

Minsk shahrida sinxron suzish bo'yicha o'tkazilgan nufuzli turnirda o'zbekistonlik sportchilar sovrindorlar qatoridan joy oldi.

Belarus ochiq chempionati sinxron suzuvchilari maqomida o'tkazilgan turnirda musobaqaning uchta dasturida bronza medallarga sazovor bo'ldi. Sovrinli mahoratlilar sportchilari qatorida yurtimiz vakillari tegishli yo'nalishlarda g'oliblik uchun kurashdi. Qiziqarli kechgan bahslar yakunida mamlakatimiz sinxron suzuvchilari musobaqaning uchta dasturida bronza medallarga sazovor bo'ldi. Sovrinli o'rnlarni qo'lga kiritishda mahoratlilar sportchilarimiz Darya Kochneva va Yelizaveta Kasatkina g'alabaga bo'lgan kuchli irodasini namoyish etdi.

Iqtidorlar uchun zamonaviy futbol akademiyasi

Yurtimizda sport sohasini rivojlantirish, yosh avlodni jismonan sog'lom va ma'nan yetuk qilib tarbiyalash maqsadida amalga oshirilayotgan islohotlar doirasida yana bir muhim qadam qo'yildi.



Bugun Namanganda zamonaviy Futbol akademiyasi tantanali ravishda foydalanishga topshirildi. Muassasani qurish uchun 12 mlrd. 500 mln. so'mdan ortiq mablag' yo'naltirilib, 154 o'rinli zamonaviy yotoqxon va barcha sharoitga ega oshxona barpo etildi. Ayni paytda akademiyada 154 nafar yosh futbolchi muntazam mashg'ul olib bormoqda. Bu zamonaviy baza yosh iqtidorlarni kashf qilish, ularni milliy va xalqaro maydonlarga tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi. "Xalq so'zi".

O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi jamoasi taniqli olim vajamot arbobi **Zafar HAKIMOV**ning vafoti munosabati bilan marhumning oila a'zolari va yaqinlariga chuqur hamdardlik bildiradi.

Tadbir VATAN MANZUMASI

Poytaxtimizdagi "Turkiston" saroyida "Vatan manzumasini" deb nomlangan ma'naviy-ma'rifiy dastur namoyishi etildi. Yurtimizning barcha hududida tomoshabinlar hukmiga havola qilinadigan ushbu dasturda yangi O'zbekiston armiyasining hayotimizda tutgan o'rni madh etildi.

Harbiy orkestr va milliy cholg'u asboblari ansambli ohanglari ostida Vatan tuyg'usi, ona yurt himoyasi ulug'lanadigan jangovar qo'shiqlar, publisistik she'rlar tomoshabinlarda ajib zavq uyg'otdi.

Yangi O'zbekiston armiyasining qudratli kuchi, xalq ichidan yetishib chiqqan polvonlarimizning yengilmas irodasi turli badiiy kompozitsiyalar orqali sahnada ifodasini topdi. Yuksak artistizm va ijrochilik mahoratiga asoslangan bu tomosha zalga to'planganlar qalbidagi Vatanga muhabbat, erishilgan yutuqlardan g'urur tuyg'ularini uyg'otdi.

Ushbu ma'naviy-ma'rifiy tadbir O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va Mudofaa vazirliklari, Yozuvchilar uyushmasi hamda qator davlat va jamoat tashkilotlari hamkorligidagi sa'y-harakat mevasidir. Tantanali tadbirda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti maslahatchisi Xayriddin Sultonov ishtirok etdi.

"Xalq so'zi".

YOSHLARGA QANOT BO'LAYOTGAN MASKAN



Bitiruvchi – 2025

Anjuman avvalida O'zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasi yangradi. Ichki ishlar vazirligi mas'ul xodimi Prezidentimizning maktab bitiruvchilariga yo'lagan tabrigini o'qib eshittirdi. Shundan so'ng maktab-internet direktori tadbirini ochib, ishtirokchilarni qutladi,

bugungi kunning ahamiyati va yoshlarga bildirilayotgan ishonch, ulkan mas'uliyat haqida to'xtaldi. Bitiruv marosimida o'quvchilar ham so'zga chiqib, ta'lim-tarbiya bergan ustozlari, ota-onalari ishonchlarini oqlashga, yurt ravnaqiga hissa qo'sha oladigan, Vatanga va xalqqa sadoqat bilan xizmat qiladigan avlod bo'lishga va'da berishdi. Tadbir davomida badiiy

Kuni kecha mamlakatimiz umumta'lim maktablarida so'nggi qo'ng'iroq sadolari jaranglab, bitiruvchilar katta hayotga yo'l oldi. Poytaxtimizdagi O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining ixtisoslashtirilgan maktab-internatida ham "Ilim – eng buyuk sharafl" shiori ostida "So'nggi qo'ng'iroq" tadbiri bo'lib o'tdi. Unda ta'lim dargohining o'qituvchi-murabbiylari, bitiruvchilarning ota-onalari hamda keng jamoatchilik vakillari qatnashdi.

chiqishlar namoyish etildi, ilm-ma'rifat, vatanparvarlik va fidoyilik ruhidagi she'r va qo'shiqlar yangradi. Aytish joizki, mazkur ixtisoslashtirilgan maktab-internet Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 19-iyundagi "O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining ixtisoslashtirilgan maktab-internati faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga asoslanib, Ta'lim dargohi joylashgan bino 1974-yilda qurilgan bo'lib,

2017-yilga qadar O'zbekiston davlat jahan tillari universiteti qoshidagi 1-akademik litsey tasarrufida bo'lgan. Bundan oldi yil muqaddam esa to'liq kapital ta'mirdan chiqarilib va maktab-internat ixtiyoriga berildi.

Ta'lim muassasasiga har yili 100 nafar o'quvchi qabul qilinadi va o'qish 5-sinfdan 9-sinfgacha – besh yil davom etadi. Maktabda hozir 320 nafar o'quvchi tahsil olmoqda.

Maktab-internatni har yili iste'dodli, bilimga chanqoq va o'ziga talabchan o'quvchilar

muvaffaqiyatli tamomlab oliy o'quv yurtlari sari o'tlanmoqda. Xususan, joriy o'quv yilida 49 nafar bitiruvchining 39 nafari ingliz tilini bilish darajasi bo'yicha, 10 nafari esa "Bir million dasturchi" loyihasi bo'yicha milliy sertifikatlarni qo'lga kiritdi, 1 nafar o'quvchi esa Xalqaro IMAS olimpiadasining bronza medal sohibi bo'ldi.

Tadbir yakunida o'quv yili davomida namunali xulqi, a'lo baholalar bilan barchaga o'mak bo'lgan va turli xalqaro sertifikatlarni qo'lga kiritgan iqtidorli bitiruvchilar va ularning ota-onalariga tashakkurnoma taqdim etildi. Shuningdek, to'rt nafar bitiruvchi Ichki ishlar vazirligining "O'qishdagi muvaffaqiyatlar uchun" ko'krak nishoni bilan taqdirlandi.

"Xalq so'zi".

ISHONCHNI OQLASH MAS'ULIYATI

Kuni kecha mamlakatimizdagi 10 mingdan ziyod umumta'lim maktablarida "Ilim – eng buyuk sharafl" shiori ostida "So'nggi qo'ng'iroq" tadbirlari bo'lib o'tdi. Bu yil 450 ming nafardan ortiq bitiruvchilar jonajon maktablari bilan xayrlashib, mustaqil hayot sari qadam tashlashdi. Quyida bayon qilingan hamyurtlarimiz fikrlari ham aynan shu haqda.

Dil so'zi

Temur SAMANDAROV,
Qo'shko'pir tumanidagi 25-umumta'lim maktabi bitiruvchisi:

– Prezidentimiz tabrigidagi "Bugungi kunda biz o'z oldimizga qo'yayotgan buyuk maqsadlarni amalga oshirishda butun xalqimiz qatori, bilimli, hunarli, tadbirkor va vatanparvar, har tomonlama yetuk yoshlarimizga tayanamiz" degan so'zlari aynan bizga qarata aytilganini his etdim. Chunki men va menga o'xshagan ilgama chanqoq, iqtidorli, elu yurtimizga chin dildan xizmat qilaman degan yoshlar tengqurlarim orasida

talaygina.

Bugun ularning niyati bitta – oliy ta'lim muassasasiga o'qishga kirish, hayotda o'z yo'lini topish va ota-onasi, yaqinlari bildirgan ishonchini oqlash. Ular buni uddalashiga ishonaman, chunki maktabda olgan bilim va tarbiyamiz bunga asos bo'la oladi. Shaxsan o'zim ham "a'lo" baholar bilan maktabni tugatdim, aziz ustozlarim, ota-onamning ko'magi bilan bilimimni oshirdim, iste'dodimni rivojlantirdim.

Kelajakda yanada o'qib-o'rganib, xuddi o'zimning aziz ustozlarim kabi bilimdon va mehribon o'qituvchi

bo'lishga, Yurtboshimiz hamda yaqinlarim bildirgan ishonchini oqlashga harakat qilaman.

Oybachin ABDULLAYEVA,
Mirobod tumanidagi 328-umumta'lim maktabi bitiruvchisining onasi:

– Bilasizmi, aslida bir ota-onaga jondan aziz farzandi kamoli, uning ulg'ayib katta hayotga qadam tashlashini ko'rishdan ziyodroq baxt yo'q.

Ha, men bugun ana shunday baxtiyor onalar safidaman. Aziz farzandim maktabni "a'lo" baholarga tugatib, yuragida ulkan reja va orzular bilan hayotga kirib kelmoqda. Ushbu shukhli kunda xayolimdand "Eh, qizim birpasda ulg'ayib qolibdi, kechagina emasmidi, 1-sinfga yetaklab kelganim, ko'z ochib yunguncha maktabni tamomlamog'da" degan o'y kechdi.

Ochig'i, farzandlarimni albatta o'qitaman, oliy ma'lumotli qilaman degan maqsad bilan yashadim. Ming shukr, qizim maktabni tugatib ulgurmasdan o'qishni davom ettirib, nufuzli universitet talabasiga aylandi. Bildirilgan ishonch oqlandi va kelajakda ham oqlanajak, albatta.

Shunday shukhli kunda Yurtboshimiz tabrik yo'ltagani, yoshlarga ulkan ishonch bildirganidan juda xursand bo'ldik. Ayniqsa, tabrikdagi "Sizlardek o'z kuchiga ishongan, qat'iyatli yoshlardan qadrdon maktabingiz, aziz ustozlaringiz va ota-onalaringiz, butun xalqimiz faqat ezgu ishlar va yorqin natijalar kutadi" degan so'zlar qalbimizni to'liqlantirib yubordi. Istdardimki, barcha ota-onalarga farzandi baxtu saodatini ko'rish, uning yutuqlaridan faxrlanib yurish nasib qilsin.

Rahmatjon BOBOJONOV
("Xalq so'zi") yozib oldi.

28-may – 4-iyun kunlari poytaxtimizda Abu Rayhon Beruniy nomidagi Xalqaro kimyo olimpiadasi o'tkaziladi.

Advertisement for 'Xalq so'zi' newspaper. Includes contact information for the Bosh muharrir O'tkir RAHMAT, subscription rates, and contact details for the 'Sharq' printing plant. Also includes a QR code and ISSN information.